

Samarqand viloyatining chakana va ulgurji savdo tovar aylanmasi

2026-yil yanvar-mart dastlabki ma'lumot

- I. CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI
- II. ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI
- III. UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI
- IV. METAMA'LUMOTLAR
- V. ALOQADOR BOSHQA HAVOLALAR

I. CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI


2026-yil 1-aprel holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni 10 786 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 51 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 10 735 tani tashkil qildi.

2026-yilning yanvar-mart oylarida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi 11 223,1 mlrd so'mni tashkil etib, 2025-yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 122,6 % ni tashkil etdi.


Jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 1 131,2 mlrd so'mni (o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 112,2%), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 10 091,9 mlrd so'mni (o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 123,9 %), shundan, uyushmagan savdo tovar aylanmasi 1360,9 mlrd so'mni (o'sish sur'ati 130,1 %) tashkil etdi.

Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati (% da)

2026-yil yanvar-mart



Chakana savdo aylanmasi asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (2024-2026 yillar yanvar-mart, ulushi foizda)



■ Yirik korxonalar ■ Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik ■ Uyushmagan savdo


II. ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

2026-yil 1-aprel holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni 3 367 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 37 ta, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 3 330 tani tashkil qildi.

Viloyat bo'yicha 2026-yilning yanvar-mart oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi 7 610,4 mlrd so'mni tashkil etib, 2025-yilning mos davriga nisbatan 22,8 % ga o'sdi.

Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi umumiy hajmi 3 881,8 mlrd so'mni tashkil qilib, 2025-yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 127,4 % ni, viloyatda jami ulgurji savdo hajmidagi ulushi 51,0 % ni tashkil etdi.


Ulgurji savdo hajmi dinamikasi (mlrd so'm)



Ulgurji savdo tovar aylanmasida yirik korxonalarning eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar Nurobod (3,1 marta), Qo'shrabot (3,0 marta), Pastdarg'om

(147,4 %), Samarqand (98,8 %) tumanlari va Samarqand shahrida (127,3 %) kuzatildi.

Hududlar kesimida ulgurji savdo hajmi o'sish sur'atlari (foizda)




III. UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO HAJMI

2026-yil 1-aprel holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarini soni 2 993 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 21 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 2 972 tani tashkil qildi.

2026-yilning yanvar-mart oyida umumiy ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 5 645,7 mlrd so'mga yetib, 2025-yilning mos davriga nisbatan 4,9 % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 66,7 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.

Umumiy ovqatlanish korxonalarining savdo hajmi o'sish sur'atlari (foizda)





IV. METAMA'LUMOTLAR

Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, O'zbekiston Respublikasining me'yoriy-huquqiy hujjatlari, shuningdek, xalqaro ko'rsatmalar va tavsiyalar "Milliy hisoblar tizimi –2008", "Chakana va ulgurji savdo statistikasi bo'yicha xalqaro tavsiyalar" (BMT, 2008), Chakana tovar aylanmasining statistik kuzatuv va uning miqdoriy ko'rsatkichini hisoblash bo'yicha uslubiy tavsiyalar hisobga olingan (MDH qo'mitasi, 2011) holda ishlatiladi.

Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda hisoblangan.

V. ALOQADOR BOSHQA HAVOLA

[Ichki savdo aylanmasi](#)

Chop etishga mas'ul: Xizmatlar va savdo sohasi statistikasi bo'limi	Bo'lim boshlig'i: N.Abdirayimov Tel: +998712308000 (3040)	Ijrochi: Tel: +99866 235 14 42 e-pochta: info@samstat.uz	Manzil: 140100, Samarqand sh., U.Tursunov ko'chasi, 82
--	--	--	--